

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA VA PSIXOLOGIYANING O'QITISH  
METODIKASI  
FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

**Ta'lif soha:** 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar

**Ta'lif yo'naliishi:** 60310300 — Psixologiya

<b>Fan/modul kodi</b> PPPM1606	<b>O'quv yili</b> 2026-2027	<b>Semestr</b> 6	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lif tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>  <b>Pedagogik psixologiya va psixologiyaning o'qitish metodikasi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>  72	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>  108	<b>Jami yuklama (soat)</b>  180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni ta'lif tarbiyada o'qish jarayonlarining qonuniyatlarini, bilish va shaxslilik rivojlanishi jarayonlari hamda ta'lif muassasalarida psixologiya bo'yicha ta'lif berishning metodologik, metodik masalalari bilan tanishtirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari – ta'lif va tarbiya jarayonlari uzviyligini ko'rsatib berish va bilimlarni o'zlashtirish psixologik qonuniyatlarini, o'quv faoliyati samaradorligi psixologik shart-sharoitlarini qarab chiqish; pedagogning shaxslilik va maxsus sifatlari ahamiyatini ochib berish, o'quv mashg'ulotlari psixologik tahlili va o'qituvchi sifatlarini o'rganish metodikasiga o'rgatish; ta'lilda texnologik yondashuvni va turli pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish; psixologiya o'qitishda faol metodlarni qo'llash xususiyatlarini ajratish; psixologiya kursi mashg'ulotlarida o'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni tarbiyalashga qo'yiladigan konkret metodik talablarni tahlil qilish; talabalarda psixologiya o'qitishdagi kasbiy malaka va ko'nikmalar hamda o'rganilayotgan mavzuni tanqidiy mushohada qilishni shakllantirish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar</b></p> <p>Ta'lif va tarbiya ko'pgina fanlarning predmeti sifatida. Pedagogik faoliyat psixologiyasi ta'lif va tarbiyaning psixologik jahhalari. Ta'lif va tarbiyaning amaliy yig'indisi. Tarbiyaning ta'lif oldidagi ustunligi. Pedagogik psixologiya tuzilmasi. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari. Rivojlanishda senzitiv davr muammolari. Bolaning psixik rivojlanishi va pedagogik ta'sirning o'zaro aloqadorligi muammosi. Genotipik va muhitda shartlanganlik muammosi. Pedagogik ortda qolish muammosi. Ijtimoiy adaptasiya va reabilitasiya muammosi.</p> <p><b>2-mavzu. Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi</b></p> <p>Pedagogik psixologiyaning umumpsixologik konteksti. Psixologiya</p>			

nazariyalari va uning pedagogik psixologiya rivojlanishiga ta'siri. Fanga "Pedagogik psixologiya" terminining kiritilishi. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.

### **3-mavzu. Pedagogik psixologiyaning metodlari**

Umumiylar maxsus metodlar. Pedagogik psixologiyada eksperiment. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo'llash. Tadqiqot, konsultasiya va psixologik-pedagogik korreksiya metodlari.

### **4-mavzu. O'rganish va o'quv faoliyati nazariyasi**

O'rganish turlari, shart-sharoitlari va mexanizmlari. Faoliyat turlari. O'quv faoliyati, o'qitish, o'rgatish, o'zlashtirish va etilish tushunchalari. Imprinting, operant o'rganish, shartli reflektor o'rganish, vikar o'rganish, verbal o'rganish. O'rganish va rivojlanishning o'zaro munosabati. O'rganish darajasini belgilovchi omillar.

O'quv faoliyati nazariyasi. O'quv faoliyati tuzilmasi: asosiy talablar. Motivasiyalashganlik, rivojlanganlik, egiluvchanlik va o'quv faoliyatini amalga oshirishning turli vositalari. O'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri. O'quv ishining turlari: frontal, individual, bevosita, bilvosita, axborot, umumlashtirish. O'quv faoliyatini tashkil etishning guruhiy ko'rinishlari. O'quv faoliyati rivojlanishini baholash parametrlari.

Turli yosh davrlarida o'rganish. Bolalik va erta davr. Maktabgacha davr. Kichik maktab davrida o'qitish. O'smirlik va o'spirinlik davrlarida o'qitish va o'zlashtirish.

### **5-mavzu. Ta'lif olish qobiliyati o'quv faoliyati subyektlarining xarakteristikasi sifatida**

Psixologiyada subyekt tushunchasi. Subyektning asosiy xarakteristikalar. Ta'lif jarayoni subyektlarining maxsus xususiyatlari. Ta'lif olishning umumiylar xarakteristikasi va uning ko'rsatkichlari. Ta'lif olish omillari va ta'lif oluvchilar xarakteristikasi.

### **6-mavzu. O'quv motivasiyasi**

Psixologiya fanida motivasiya tushunchasi. Motivasiya nazariyasi. O'quv motivasiyasi: tushuncha va tuzilma. O'quv motivasiyasi turlari va mazmuni. O'quv motivlari turlari. O'quv qiziqishlari. O'quv motivasiyasini o'rganish va uning shakllanishi.

### **7-mavzu. Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari**

Tarbiyaning nazariy masalalari. Tarbiyaning maqsadi. Vosita va metodlar: to'g'ridan-to'g'ri, vositali, anglangan va anglanmagan, emotsiyonal va xulqiy, ularning xususiyatlari va kamchiliklari. Tarbiya institutlari. Tarbiyaning psixologik nazariyasi. Tarbiyaning biogen nazariyasi. Tarbiyaning sosiogen nazariyasi. Kompromiss yondashuv.

Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq-atvor ko‘rinishlarini tarbiyalash masalalari.

Tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jahhalari. Muloqot va tarbiya. Shaxsning alohida sifatlari shakllanishi uchun muloqotning turlari. Bolalarda muloqotning shakllanishi. Shaxslararo muloqot etalonlarining shakllanishi. Jamoa va shaxs rivojlanishi.

Oila va tarbiya. Oila ichidagi munosabatlarning turlari. Oilada bola tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarning birligi va ularni boshqarish yo‘llari. Rag‘batlantirish va jazolashni qo‘llash. Noto‘liq oila. Oila buzilishining ijtimoiy-psixologik oqibatlari. Aka va singillar rollari. Bolalarni tarbiyalash va ota-onas xulq-atvori maromi.

Turli yosh davrlarida tarbiyalash. Bolalik va erta davr. Kichik maktab davrida tarbiyalash. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida tarbiyalash.

### **8-mavzu. Pedagog psixologiyasi**

Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablar. Pedagoglarning ijtimoiy-maxsus sifatlarini aniqlash metodi. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari. Kommunikativ qobiliyatlar tuzilmasi va pedagogda uni rivojlantirish usul hamda vositalari. Pedagogik muloqot. Pedagog faoliyatining individual uslubi. Pedagogning individual uslubi orqali bola individuallagini shakllantirish. Pedagogda o‘zini o‘zi rivojlantirish va shakllantirish. Pedagogik o‘zini o‘zi boshqarish psixologiyasi.

### **9-mavzu. Pedagogik baholash psixologiyasi**

Ta’limni stimullashtirish va bolalarni tarbiyalash vositalari. Pedagogik baholash stimul sifatida, ularning turlari. E’tibor va ma’qullash pedagogik baholash sifatida. Pedagogik baholashning sotsial-psixologik ko‘rinishlari. Pedagogik baholash samaradorligi shartlari. Baholashning shaxsiy ahamiyati. Stimullarning individual qadr-qimmatining o‘zgarishi. Pedagogik baholashning yosh xususiyatlari.

### **10-mavzu. Psixologiya o‘qitish metodikasi: predmeti, vazifalari, tamoyillari**

Psixologiyani o‘qitishning umumiy masalalari. Psixologiya o‘qitish metodikasi predmeti, uning tarkibi, vazifalari va funksiyalari. Psixologiya o‘qitishning umumiy va maxsus metodikalari.

Psixologiya o‘qitish metodikasining metodologik asoslari. Psixik voqeliklarning ilmiy tahlili asosida quriluvchi taxminlar. Voqeliklarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro shartlanganligi tamoyili. Tarixiylik tamoyili, rivojlanish tamoyili. Faoliyat tamoyili. To‘liqlik tamoyili. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Psixologiya o‘qitish metodikasining dunyoqarashga assoslanganligi. Psixologiyaning amaliyot bilan bog‘liqligi va o‘qitish metodikasi.

### **11-mavzu. Ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv**

Ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi, uning sinonimlari va evolyutsiyasi. Texnologik tashkillashgan o‘quv jarayonining belgilari.

Ta’limning diagnostik maqsadlarini o‘rnatish texnologiyalari. Bilish qobig‘ida diagnostik maqsadlar taksonomiyasi. Psixologiya kursida o‘quv vazifalari tizimi. O‘quv vazifalari taksonomiyasi va ta’lim jadalligini boshqarish. D.Tollingerovaning o‘quv vazifalari taksonomiyasi.

O‘rganishning zamonaviy konsepsiyalari va pedagogik texnologiya turlari. Pedagogik texnologiya turlarining klassifikasiysi. Pedagogik texnologiyalar namunalari va ularning tanqidiy tahlili.

### **12-mavzu. Psixologiya o‘qitishning maqsadlari**

Psixologiyaning gumanitar fan sifatidagi o‘ziga xos tarkibi va psixologiya o‘qitish maqsadi. Psixologiya o‘qitishning o‘quv rejasi, dasturi va psixologiya o‘quv fani sifatida. Psixologiya rivojlanishining asosiy tendensiyalari va psixologik ta’lim.

Oliy va o‘rtta maktabda psixologiyani o‘qitish tarixi. Zamonaviy psixologik ta’lim. Bilish faoliyati ko‘rinishlari va psixologiya o‘qitishning faol metodlari.

### **13-mavzu. Psixologiya o‘qitishning psixologik jahhalari**

Qiziqish va diqqat barcha psixik funksiyalar boshqaruvi hamda faollashuvi manbasi sifatida. O‘quv materialini o‘zlashtirish va idrok samaradorligini ta’minlovchi omillar. Talaba intellektual faoliyati faollashuvi va uning o‘qitish metodikalari bilan bog‘liqligi. Psixologiya o‘qitishda diqqat, idrok, xotira, tasavvur va hayolning yosh xususiyatlarini hisobga olinishi. O‘qituvchi nutqining psixologik xususiyatlari.

Psixologiya o‘qitish metodikasining mantiqiy asoslari. O‘rganilgan material qurilishi, uning tizimliligi va ketma-ketligi. Asosiy psixologik tushunchalar hajmi va tarkibini ochish. Matnni yetkazishning mantiqiy (nazariy), empirik, tarixiy, genetik metodlari.

Psixologiya o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yo‘llar va vositalar. Psixologiya o‘qitishda ko‘rgazmalilik tamoyili. Kuzatish. Kichik maktab davridagi bolalarni kuzatish. Bolalarning film yoki spektaklni idrok etishini kuzatish. Darsda bolaning bilish faoliyatini kuzatish. Rasmlar, jadvallar, sxemalarni qo‘llash. O‘quv filmlarini qo‘llash. So‘zli ko‘rsatma.

O‘quv jarayonini tashkil etish. O‘quv-tarbiya vaziyati ta’limni boshqarishning birligi sifatida. Psixologiyani o‘qitishda talaba va o‘quv vaziyatini tashkil etish. Psixologiya o‘qitishda o‘qituvchi va talaba hamkorligi. Mahsuldar birgalikdagi faoliyat shaxsni tarbiyalashning aktiv metodi sifatida. Psixologik bilimlar o‘zlashtirilishini nazorat qilish muammosi va xatolar tipologiyasi.

#### **14-mavzu. Ta’limning tashkillashtiruvchi shakllari va vositalari**

Ma’ruza, uning turlari. Seminar va amaliy mashg‘ulotlar. Laboratoriya ishi. Kurs loyihasi. Pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti. Konsultasiyalar. Bitiruv malakaviy loyihalari. Talabalar mustaqil ishi. Muammoli o‘qitish. Dasturlashtirilgan o‘qitish. Ishga oid o‘yinlar. Modulli o‘qitish. Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyati. O‘qitishning texnik vositalari. Pedagogik nazorat funksiyalari va shakllari. Bilimlarni baholash.

#### **15-mavzu. Talabalarda psixologiyani o‘qitish malakasini egallahsga doir mustaqil ishlari**

Talabalarning psixologiya o‘qitish ko‘nikmalarini egallah bo‘yicha mustaqil ishlari. Munozarani tayyorlash va o‘tkazish. Psixologiyadan ma’ruza matnlarini mustaqil ishlab chiqish. Seminar mashg‘uloti ssenariysini ishlab chiqish. Psixologiyadan bironta mavzuni o‘tkazish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar.

### **III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar.
2. O‘rganish va o‘quv faoliyati nazariyasi.
3. Ta’lim olish qobiliyati o‘quv faoliyati subyektlarining xarakteristikasi sifatida.
4. O‘quv motivasiysi.
5. Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari.
6. Pedagog psixologiyasi.
7. Pedagogik baholash psixologiyasi.
8. Psixologiya o‘qitish metodikasi: predmeti, vazifalari, tamoyillari.
9. Ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv.
10. Talabalarda psixologiyani o‘qitish malakasini egallahsga doir mustaqil ishlari.

Seminar mashg‘ulotlari mavzu bo‘yicha reja va tavsiya qilingan adabiyotlar asosida o‘tkaziladi. Talaba mustaqil tayyorgarlik ko‘rib, to‘plagan bilimlarini dars vaqtida himoya qiladi.

Seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish rivojlantiruvchi va muammoli ta’lim tamoyillari asosida qurilishi lozim. Seminar mashg‘ulotlarining informasion va pedagogik-texnologik ta’minoti: seminar mashg‘ulotlari an‘anaviy va press-konferensiya diskussiya ko‘rinishlarida olib boriladi. Seminarlarni o‘tkazish davomida o‘qitish filmlari qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek seminar mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda ishlab chiqilgan ma’ruzaning asosiy g‘oyalarini prezентasiyasi tarzida ham o‘tkazish mumkin. Har bir talaba psixologiya bo‘yicha ma’ruzani auditoriyada o‘tadi. Ma’ruza mashg‘ulotlarini olib borish uchun talabalarga (axborot metodik ta’minlanganlik) press-konferensiya ma’ruzasi, suhbat ma’ruzasi, diskussiya ma’ruzasi, konkret vaziyatlarni

tahlili ma’ruzasi, vizualizasiya ma’ruzasi, oldindan ko‘zda tutilgan xatolar ma’ruzasi, birgalikda ma’ruzasi kabilar tavsiya etiladi.

#### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar.
2. O‘rganish va o‘quv faoliyati nazariysi.
3. O‘quv motivasiyasi.
4. Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari.
5. Pedagog psixologiyasi.
6. Pedagogik baholash psixologiyasi.
7. Ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv.
8. Psixologiya o‘qitishning psixologik jabhalari.
9. Ta’limning tashkillashtiruvchi shakllari va vositalari.
10. Talabalarda psixologiyani o‘qitish malakasini egallashga doir mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ta’limni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik; darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish; tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish; maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash; talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish; faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalilaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari; masofaviy ta’lim.

3.

#### **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- pedagogik psixologiya va psixologiyani o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari; pedagogik psixologiya va psixologiyani o‘qitish metodikasi fanining metodlari; o‘qish, o‘qitish, tarbiya va kasbiy tanlash tushunchalari; o‘qitishning turli bosqichlari; ta’limni va bilimlarni o‘zlashtirish muammolarini; o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlari; nazariy, amaliy va aboratoriya mashg‘ulotlari; psixologiyani o‘qitish maqsadi **haqida tasavvurga ega bo‘lishi;**
- o‘qish, o‘qitish, tarbiya va kasbiy tanlash tushunchalarini tahlil qilishni; o‘qitishning turli bosqichlarini loyihalashni; ta’limni va bilimlarni o‘zlashtirish muammolarini izohlashni; o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini baholashni; nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining xususiyatlarini; psixologiyani o‘qitish maqsadining belgilashni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- pedagogik psixologiya muammolarini aniqlash va tahlil qilish; psixologiyani o‘qitish metodikalarini qo‘llay olish; mashg‘ulot jarayonini tashkil eta olish; mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar bilan munosabatlar o‘rnatish; psixologiya fani bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya

	mashg‘ulotlarini tashkil etish; psixologiyani o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish; mashg‘ulot maqsadi va vazifalari asosida ta’lim usullarini tanlash; ta’lim jarayoni natijalarini baholash ko‘nikmalariga <b><i>ega bo‘lishi kerak.</i></b>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ma’ruzalar</li> <li>– seminar mashg‘ulotlar (tezkor savol-javoblar, guruhlarda ishlash, taqdimotlarni qilish va boshka interaktiv metodlar)</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Woolfolk A., Usher E. Educational Psychology. 15th edition. Pearson Education, 2023. 881 p.</li> <li>2. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn]: darslik / Z.T.Nishanova va boshq. Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. 600 b.</li> <li>3. Карамян М.Х. Педагогическая психология и методика преподавания психологии. Учебное пособие. Т.: «Университет», 2023. 216 с.</li> <li>4. Лебедева Ю.В. Педагогическая психология: практикум / Ю. В. Лебедева, И. О. Куваева; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. 159 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» от 11.09.2023 г. № УП-158.</li> <li>6. Айсмонтас Б.Б. Педагогическая психология: Схемы и тесты. М.: Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2002. 208 с.</li> <li>7. Барышникова Е.В. Методика преподавания психологии [Текст]: учебное пособие Челябинск: Изд-во Южно-Урал. гос. гуман.-пед. ун-та, 2018. 172 с.</li> <li>8. Фозиев Э.Ф. Психология ўқитиш методикаси. Т.: ЎзМУ, 2005.</li> <li>9. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учеб. пособие. Ростов н/Д, 2001.</li> <li>10. Карапашев В.Н. Методика преподавания психологии: Учебное пособие. СПб.: Питер, 2009. 250 с.</li> <li>11. Ляудис В.Я. Методика преподавания психологии. Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению и спец. "Психология". [4-е изд., испр. и доп.]. М., 2003. 191 с.</li> <li>12. Панкратова Т. М. Методика преподавания психологии: учеб.</li> </ol>

- пособие / Т. М. Панкратова; Яросл. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. 2-е изд., испр. и доп. Ярославль: ЯрГУ, 2015. 112 с.
13. Педагогическая психология. Под ред. Л.Регуш, А.Орловой. М.: Питер, 2011. 416 с.
  14. Педагогическая психология: Хрестоматия/Сост. В.Н.Карандашев, Н.В.Носова, О.Н.Щепелина. СПб.: Питер, 2006. 412 с.
  15. Такман Б.У. Педагогическая психология: от теории к практике. М., 2002.
  16. Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. Психология фанларини ўқитиш методикаси. Т.: «Алокачи», 2007.
  17. Хон Р.А. Педагогическая психология: Принципы обучения: Учебное пособие для высшей школы. 2-е изд. М: Академический Проект: Культура, 2005. 736 с.

#### **Axborot manbalari**

18. URL: <https://www.apa.org/pubs/databases/psycinfo/index.aspx>
19. URL: <http://psyjournals.ru>
20. URL: <https://psy.su>
21. URL: <http://www.psystudy.ru>
22. URL: <http://elkonin.ru>

	7.	O‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 20_yil _____ gi _____ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
	8.	<b>Fan/modul uchun ma’sular:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>M.X.Karamyan – O‘zbekiston Milliy universiteti umumiyl psixologiya kafedrasini professor, psixologiya fanlari doktori (DSc)</li> <li>D.I.Ilxamova – O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy psixologiya kafedrasini professor v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc)</li> <li>Z.A.Abidova – O‘zbekiston Milliy universiteti umumiyl psixologiya kafedrasini dotsenti, PhD</li> </ul>
	9.	<b>Taqrizchilar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>G.Baykunusova – Toshkent Davlat pedagogika universiteti professor, psixologiya fanlari doktori (DSc),</li> <li>K.B.Kadirov – Innovatsion va ijtimoiy iqtisodiyot universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor</li> </ul>





